



## **CHARACTERISTICS AND TYPOLOGICAL FACTORS OF CHOIR CONDUCTING WORKS FOR CHILDREN'S CHORUS IN THE WORK OF COMPOSERS OF UZBEKISTAN AND THE WORLD**

**Madhiya Tulayeva Berdimuradovna**

Teacher of Navoi specialized school of culture

**Sherzod Salimov Shozargarovich**

Master's degree student of Navoi State Pedagogical Institute

**Maftuna Alimbayeva Komiljonovna**

Buxoro is a specialized arts academy under

1st category Teacher of the boarding school of art

### **Abstract:**

The features of works for children's choir in the works of composers of Uzbekistan and the world and the typological factors of choral conducting are highlighted using advanced pedagogical methods.

### **Keywords:**

Dynamics, tempo, genre, form, articulation, chorus, folklore, status, invoice, range.

Bolalar xori uchun yozilgan asarlarning tipologik va individual omillari kuy, lad, ritm, faktura, janr, shakl orqali jamoaviy ijrochilik vositalarining uyg'unligini yuzaga keltirishi hamda yangi garmonik tovushlar koloritining bolalar ovoz diapazoniga mos holda, bugungi kun musiqasiga oid klassik, xalqona va zamonaviy musiqa belgilarini namoyon etishi bilan xarakterlanadi.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasini hamda sifatli va har tomonlama mukammal ta'lim samaradorligini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilinishi, o'z navbatida yuksak tafakkurli mustaqil fikrlay oladigan, komil insonlarning kamol topishiga zamin yaratmoqda.

XX asrda o'zbek musiqa madaniyatida xalqchil san'at sifatida shakllanib, oddiy musiqa uslubidan mukammal darajadagi janrga ko'tarila olgan Xor san'ati, hozirgi kunda yoshlar kamolotida katta tarbiyaviy salohiyatga ega ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Xor san'atining barcha janrlarida samarali ijod qilib kelgan va kelayotgan O'zbekiston hamda Jahon kompozitorlari, Bolalar xori uchun ham sodda va tushunarli musiqiy ifodaviylik unsurlari bilan boyitilgan, xalqona xarakterga xos (turli millat xalq kuylari asosida) qayta ishlangan ijod namunalari, akapellalarni yaratgan. Xor san'atining shakllanishi va rivollanishi ma'lum bir tarixiy davrlarga borib taqaladi hamda so'z va musiqadagi emotsional tuyg'ularni, jamoa bo'lib ijro etishga qaratilgan. Asrlar davomida sayqal topib kelgan cherkov kuylari, professional xor san'atining poydevori hisoblanadi.

XV- XVI asrlarda yashab, ko'p ovozli asarlarni yaratib kelgan J. Palestrina, O. Lasso, K. Janeken kabi polifonist- kompozitorlar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida Xor san'atining rivoj topishiga, o'zbek folklor qo'shiqlari va maqomlardagi jamoa bo'lib kuylash shakllari zamin yaratdi. Bolalar xori uchun yozilgan har bir asar xor rahbari, dirijordan musiqiy- badiiy yondashuvni va dirijyorlikka oid professional bilim hamda salohiyatni talab etadi.

O'zbek va jahon kompozitorlarining xor uchun yozgan asarlarining dirijorligi quyidagi sohaga oid ko'nikmalarning shakllanishiga doir mashqlar orqali mukammal holatga keladi.

Nega-ki, dirijyorlik doimiy mashqlar va tinimsiz nazariy va amaliy bilimlarni egallash hamda amalda tatbiq etish jarayonlarining tartibli, bosqichma- bosqich jarayoniga asoslanishi bilan ahamiyatlidir. Bu o'zlashtirilishi shart bo'lgan dirijyorlik ko'nikmalari bolalar xoridagi har bir ovoz uchun alohida va bosqichma- bosqich o'rgatilishi orqali mukammallashadi. Chunki Bolalar xoriga asarlarni o'rgatish metodikasining noodatiyligi, fakturaviy va boy kontrass polifonik tuzilmasiga ega ekanligi bilan, kompozitor- ijrochi- tinglovchi ichki dunyosi uyg'unligini, jamoaviy talqin etilishiga qaratilganligi bilan murakkablik kasb etadi.

Xususan, tanlangan asar sur'ati, mazmuni va xarakteriga qarab yengil, ohangdor, mayin va ta'sirli qilib ijro etish muhim bosqichlardan biri bo'lib, quyidagi mashq orqali dirijyorlik texnikasini rivojlantirish mumkin bo'ladi:



Xor jamoalari bilan ishlash jarayonida dastlab asarning kelib chiqish tarixi, kompozitori, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, nima haqida kuylanayotganini aytib berish- dirijyorning vazifalaridan biridir. Asarni dirijyorlik qilish jarayonida so'z va uning mazmunini yaxshi bilish hamda dinamik belgilarni nazorat qilgan holda talqin etishni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa va qo'shiqlarning yoqimli bo'lishi, ma'lum bir maqsadni yoritib berish uchun O'zbekiston va Jahon kompozitorlari tomonidan ularning tegishli qismiga kerakli dinamik belgilar qo'yiladi. Bu belgilar italyancha so'zlar mazmunidan olinib, notada qisqartirilgan holda quyidagicha yoziladi:

*p* – (piano) kuchsiz, ohista.

*mp* – (mezzo piano) kuchsizroq.

*pp* – (pianissimo) juda kuchsiz.

*mf* – (mezzo forte) kuchliroq.


*f* – (forte) kuchli, qattiq.

*ff* – (fortissimo) juda kuchli.


cresc. – (crescendo) tovushni kuchaytirib borish.

dim. – (diminuendo) tovushni kuchsizlantirib borish.

Dirijyorlarning asar dinamikasini sifatli talqin etish ko'nikmasini quyidagi mashqlar orqali rivojlantirish mumkin bo'ladi:



Xor dirijyorligida asarlarning templarini aniq va ravon yoritib talqin etish ko'nikmasini shakllantirishda quyidagi mashqlardan foydalanish samarali natija beradi:



Xor raxbari Bolalar xori bilan ishlash jarayonida ilg'or pedagogik usullardan foydalanishi, ijro talqiniga oid materiallarni to'plab, yuqori darajada o'zlashtirishi nihoyatda muhimdir. Bolalar xori bilan ishlash jarayonida jamoa ijrosining tozza, ravon, dinamika, agogika, artikulyatsiya kabi ifodaviylikning ijrochilik vositalaridan to'g'ri foydalanish hamda qo'llash orqali erishiladi. Kompozitorlarning bir- biridan farq qiluvchi asarlarini o'rgatish jarayoni musiqiy til, yo'nalish, musiqiy ohang, o'ziga xos garmoniya va xarakter uyg'unligini yaxlit bir holatga keltirish, Bolalar xor san'atining taraqqiy etishiga yangicha ijro unsurlari bilan yo'l ochib berib, o'quvchi yoshlarda musiqiy did va salohiyatni o'stirishga xizmat qiladi. Buning asosida esa Bolalar xori bilan ishlash jarayonining bosqichma- bosqich amalga oshiriluvchi, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik usullarning amalda tadbiq etilishiga qaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'ziyev R. «Xorshunoslik», -T., 1987.
2. Mansurova G. «Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubi», -T., 2016.
3. Qodirov R. «Musiqqa psixologiyasi», -T., 2005.
4. Amirova L. «Dirijirovaniye i chteniye xorovix partitur», -U., 2011.